



Ислом Нури

«Musulmon do`stim, dushmaningizni bilasizmi?» silsilasi (7)

Muallif: Abu Muhammad

Tarjimon: Abu Ja'far al Buxoriy

Bismillahir rohmanir rohiym

Allohga hamdu sanolar, payg`ambarimiz, uning oilasi, sahobalari va ularga qiyomat kunigacha yaxshilik bilan e`rgashgan kishilarga salavot va salomlar bo`lsin.

So`ng...

Ikki musulmon, «ixtilof» va «tarqoqlik» ko`rinishlari hozirgi islomiy harakatlar uchun ofat e`kanida ixtilof qilmasa kerak. Holbuki, ixtilof va tarqoqlik islomiy da`vatning mumkin bo`lgani qadar falaj qilayotgan kasallikdir. Shubhasiz, ixtilof va tarqoqlikning katta omili va xatarlaridan biri - taasub, guruhbozlik va g`ururdir.

Afsuski, bu ko`rinish islomiy islohiy harakat va jamoatlarning alomatlaridan biriga aylandi. Shuning uchun ham har bir guruh o`zidagi narsa bilan quvonmoqda va o`zini e`rgashishga, Islom ummatining etakchiligini qo`lga olishiga loyiq hamda uning barcha muammolarini hal e`tishga qodir, deb aytmoqda. Ba`zi Islomiy harakatlar o`z jamoatiga mansub bo`lmagan musulmonlar ommasi, da`vatchilarni layoqat, fikrlash va manfaatlarni idrok e`tish darajasidan pastroq, e`ng ozida e`sa ularga «bechoralar» kabi shafqat va e`tiborsizlik bilqan nazar tashlamodalar. Hatto, ba`zi jamoatlar o`zini «Bizgina musulmonlar jamoatimiz», yoki «Shu nomga bizdan boshqasi loyiq e`mas» demoqdalar.

Bu buzg`unchilikning manbai insonlar qalbida do`stlik ma`nolarini



Ислом Нури

bulg`adi. Shuning uchun ham, bunday kishilarning e`tiqodi sog`lom bo`lgan barcha musulmonlar bilan do`stlashish o`rniga, o`zi mansub bo`lgan jamoati, yoki toifasi, yoki qavmi bilangina do`stlashayotganini ko`rasiz. U o`z guruhining dasturi asosida do`stlashib, dushmanlashmoqda va o`sha guruhning ko`z oynagi bilan ko`rmoqda.

Tabiiyki, bu xato bo`lib, uning gunohini qilgan va boshqalarni shu asosda tarbiya qilgan odamlar ko`taradilar. Zero, Islom dinida do`stlashish va dushmanlashish sog`lom e`tiqod asosida bo`ladi. Shuning uchun ham barcha musulmon jinsi, rangi va tilidan qat`iy nazar, musulmonning do`stidir. «Ahlussunna val-jamoat» (sunnat va jamoat ahllari) ga mansub sog`lom e`tiqod sohibi va salaf solih e`tiqodi bilan xulqlangan barcha musulmon bilan do`stlashishga hech bir mone`lik yoqdir. Balki, e`tiqodi va suluki buzilgan, biroq, kufr darajasiga etibormagan musulmon bilan ham iymoni va yaxshiliklariga yarasha, bid`atlari va yomon xulqidan uzoq turib, do`stlashilsa bo`laveradi.

Bu «ahlussunna» (sunnat ahllari) ning musulmonlarga qaratilgan, Islom nomi ostida birlashtiradigan nazariyasidir. «Ahlussunna» dan boshqa bid`atchi va guruhbozlarning nazariyasi e`sa, kunimizdagi islomiy harakatlarning asosiy belgilari bo`lgan ixtilof va tarqoqlikka olib boradigan nazariyadir. Bu belgini Alloh ta`olo mazammat qildi va rasululloh sollallohu alayhi va sallam ta`qiqladilar. Alloh ta`olo dedi: **«Allohning mustahkam arqonini mahkam ushlanglar, tarqoq bo`lmanglar!»**; (*Oli Imron: 103*)

«Siz dinlarini parchalagan va guruh-guruh bo`lgan kishilardan e`massiz». (*An`om: 159*)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: **«Ixtilof qilmanglar!»**



Ислом Нури

Chunki, sizlardan avval gilar ixtilof sababli halok bo`ldilar». (Imom Buxoriy rahimahulloh rivoyati)

Ta`qiqalar naqadar kuchli bo`lmasin, ko`plab islomiy harakatlar va da`vatchilar ixtilof balosiga muhtalo bo`ldilar. Chunki, ularning dasturi, uslubi va harakatlarida tarqoqlik davom e`tmoqda. Achinarlisi shuki, ushbu harakatlar ixtiloflarni kuchaytirmoqda. Bizningcha, muammolarning ildizi shaxslarning tushuncha va hohishlaridadir. Uning sababi e`sa, Allohning Kitobi, rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlari va salaf solih yo`lidan uzoq bo`lishdir. Buning qarshisida e`sa, taassub, g`urur va «ahlussunna val-jamo`a» ning haqiqat asosida birlashish va Allohning mustahkam arqonini ushlashni taqozo qiladigan e`tiqodini ushlamaslik bordir-ki, bu sabablar bilan ixtiloflar yo`qoladi. Biz ushbu da`vatimiz bilan islomiy harakatlar va da`vatchilarni o`zlaridagi salaf dasturiga nisbatan e`tiqodiy va sulukiy ixtiloflari bilan birlashishlariga chaqirmoqchi e`masmiz. Bundan Alloh saqlasin! Maqsadimiz, ularning barchasini haqiqat asosida birlashishlaridir. Haqiqat e`sa, Alloh ta`oloning Kitobi, rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlari va salaf solihning merosidir.

Musulmon do`stim, bilingki, Islom dinidagi asos - yaxlitlik hamda birlashishning farzligi va tarqoqlik va ixtilofning haromligidir. Bu asos musulmonlar o`rtasidagi do`stlik va birodarlik aloqalarini mustahkamlash, Alloh yo`lida sevish, e`tiqodiy birlik asosida tarqoqlik va ixtiloflarni tark e`tish hamda Qur`on Karim hukmlari va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlari bilan xulqlanishga olib boradi. So`ngra e`sa qasd qilingan jamiyatni birinchi Islom avlodi ushlagan tarzda bo`lishini kafolatlaydi. Guruhbozlik va tarqoqlik e`sa buning ziddi bo`lib, jamiyatni vayron qiladi. Ularning samarasi Alloh yo`lidagi muhabbat va sadoqatli do`stlikning yo`qolib, o`rniga tor doiradagi guruhbozlik asosidagi do`stlik



Ислом Нури

qoldiqlari qoladi, xolos. Bu bilan sharafga e`rishish mumkinmi?! Bu bilan da`vat va uyg`onish bo`lishi mumkinmi?!

Guruhbozlikning jirkanchli taassubi o`z sohibini haqiqatni o`z ahlidan olishdan bosh torttiradi. Chunki, u odam bu guruhning odamlaridan e`masda! Allohu Akbar!... Bunday lahzalarda shaxslar, ismlar va jamoatlar «nuri» ostida do`stlik va dushmanlik uchqunlari alanga oladi!

Shayxulislom ibn Taymiyya rahimahullohni (Alloh rahmat qilsin), u: «Kim bo`lishidan qat`iy nazar, biror kishining hohishiga qarab so`z va harakatlarida do`st yoki dushman bo`lgan odam, dinlarini parchalab, guruhlarga bo`lingan kishilardan biridir» – dedi.

Alloh ta`olo ibn Taymiyyani rahmat qilsin. U bu so`zlarini go`yo bizning asrimiz uchun aytgandek. Zero, bugungi kundagi ko`plab islomiy guruh va jamoatlar yuqoridagi kabi holatdadir. Ular ba`zi shaxslarni o`zlari uchun yo`lboshchi qilib, ularning do`stlarini do`st, dushmanlarini dushman hisoblamoqdalar. Ularning bergan fatvolariga Allohning Qur`oni va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlariga murojaat e`tmay, aytayotgan yoki berayotgan fatvolariga dalil va hujjatni so`ramay itoat e`tmoqdalar... Bunday dasturlar o`zgartish yoki musulmonlar saflarining yaxlitligi uchun asos bo`la olmaydi. Balki, ish bu yerda to`xtamadi. Jamoatlar jamoatlarni, guruhlarni vujudga kelishiga sabab bo`ldi. Yoshlar shayxga, shayxlar yo`lboshchiga aylandi. Shuning uchun ham islomiy harakatlarning son-sanoqligi tuzatish kerak bo`lgan kasallikdir. Musulmonlar odamlar uchun chiqarilgan ummat bo`lishlari va dinning barchasi Allohnikiga bo`lguniga qadar har bir musulmon bu ko`rinishni davolash oldida mas`uldir.

Biz biron bir guruh yoki shu guruhga mansub bo`lgan shaxslarni tanqid qilar e`kanmiz ijtihod va islomiy harakatlar birlashmasi tanqid qilinishi



Ислом Нури

mumkin e`kani hamda u yuraklarni siqmasligini yaxshi bilamiz. Biz shuni e`lon qilmoqchimizki, bizning guruhbozlikni inkor e`tishimiz va yoqtirmasligimiz bir musulmonning ikkinchi yoki uchunchi bir musulmonga haq so`zni aytish, zolimning yo`lini to`shish yoki Islom ummatidan tajovuzni qaytarish uchun birlashishlarini rad e`tishni ifodalamaydi. Chunki, shar`iy hamkorlik va jiddiy islomiy harakatlar o`zgarmas asos va qoidalar bilan, loyiq bo`lgan odamlar uchun ochiqdir.

Da`vatchi do`stim, guruhbozlik tuzog`iga tushib, payg`ambaringiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam va uning sahobalarining dasturiga muxolif bo`lishdan e`htiyot bo`ling!

Agar guruhbozlik Islom ummati uchun tuzalmas kasallik e`kan, keling, «guruhbozlik» (hizb) so`zini Qur`on Karim qaerda va nima uchun iste`mol qilganini hamda bu so`zning ruhiy ta`sirlarini birgalashib ko`rib chiqaylik.

Guruhbozlik (hizbchilik)

Qur`on Karimda «hizb» (guruh) so`zi bir necha ma`noda izte`mol qilingan.

Birinchi: turli millat, mazhab va dindagi odamlar sinfi uchun. Alloh ta`olo dedi: «Har bir guruh o`zidagi narsa bilan quvonadi».

Ikkinchi: Shayton lashkarlari ma`nosida. Alloh ta`olo dedi: «**Ular shayton guruhlaridir**».

Uchunchi: Allohning lashkarlari ma`nosida. Alloh ta`olo dedi: «**Ular Allohning guruhlaridir**».

«**al-Hizb**» - e`tiqod, iymon, kufr, fisq, vatan, qabila, kasb va shunga o`xshash odamlar birlashishga odat qilishgan umumiy sifat va manfaatlar



Ислон Нури

birlashtirgan odamlarning bir sinfi, demakdir. Bilingki, Qur`on Karimda «hizb» so`zi ikki marta iste`mol qilingan: Allohning hizbi (guruhi), Shaytonning hizbi (guruhi).

Allohning guruhining Muhammad sollallohu alayhi va sallam yuborilgan kunda qurilgan o`ziga xos dasturi bor. U dastur asosida Islom ummatining birinchi avlodi – salafi yurdi hamda yo`lboshchi va baxtiyor bo`lib yashadi. Shuning uchun ham Allohning guruhiga boshqa guruhlarini qoshgan kishilar Allohning guruhini parchalashga hissa qoshgan bo`ladilar.

Bu sizga ma`lum bo`lgan bo`lsa, shuni ham bilingki, Islomga mansub bo`lgan har bir jamoatning dasturi katta va kichik moddalarida rasululloh sollallohu alayhi va sallamning dasturi bilan shakllangan Allohning guruhiga zid bo`lsa, bu jamoat Alloh guruhining safidan chetda bo`lgan jamoatdir.

Demak, Allohning guruhini zaiflatadigan va uning dinning barchasi Allohnikini bo`lguniga qadar keng qamrab olishiga imkoniyat bermaydigan jirkanchli va tor doirali guruhbozlikni tark qilish har bir musulmonning burchidir. Barcha aqlli kishilarga ma`lumki, har bir guruhning g`oyasi, dasturi, fikri, belgilari va guruhni shakllaydigan nazariyasi bo`ladi. Bu dastur guruh intizomi kelib chiqadigan va asoslanadigan asos o`rnida bo`lib, unga haqiqat deb ishongan hamda harakat va amal asosi qilib olgan har bir kishi shu guruhga qo`shilib, unga a`zo bo`lishi mumkin. Demak, dastur do`stlik, dushmanlik, birlik va tarqoqlikning asosi e`kan. Shuning uchun ham payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning dasturidan chiqish, uni o`zgartish, unga biron narsani qo`shish yoki undan biron narsani olish yoki qonunchilikda Allohga biron maxluqni sherik qilgan kishining holiga voylar bo`lsin!



Ислом Нури

Alloh ta`olodan barchamizni haqiqat uzra sobitqadam qilishini so`raymiz.

Guruhbozlik zanjirlari

Buyuk imomlardan Ayyub Sixtiyoniy rahimahulloh: «**Ustozingning xatosini bilmogchi bo`lsang, boshqalar bilan ham o`tirib ko`r!**» degan e`di. Shuning uchun ham guruhbozlar o`zlariga e`rgashgan kishilarga boshqalar bilan birga o`tirish va boshqalarning fikrlarini o`rganishni ta`qiqalaydilar. Bu bilan o`zlarining yo`llariga zid va bid`atlarini to`sadigan narsalarni e`shitishni man qiladilar!! Ular bu harakatlari bilan tasavvuf tariqatlari hamda shayx va murid afsonalaridan namunalar oladilar. Shayxning muridlari oldiga qoygan shart (ahd) lari rasululloh sollalohu alayhi va sallamning qo`ygan shartlari oldida nima ham bo`la olar e`di! Siz guruhlarining shartlari, rasululloh sollalohu alayhi va sallam xabar berganlaridek, asossiz botil e`kanini yodingizdan chiqarmang: «**Odamlarga nima bo`ldi? Ular Allohning kitobida bo`lmagan narsalar bilan shart qilmoqdalar. Allohning kitobida bo`lmagan shartlar, garchi yuzta bo`lsada, botildir. Allohning kitobi haqroq, Allohning sharti mustahkamroq va valiylik ozod qilgan odam uchundir**». (Ibn Mojjja rivoyati, sahih hadis) [Bu hadisning aytilisiga bir qissa sabab bolgan, bu uni keltiriladigan o`rin emas. Valiylik: bir necha turli boladi: bir kishining islomiga sabab bolsa yoki qullikdan ozod bo`lishiga sabab bolsa va hokazo... Bu erda aytilgan valiylik zikr qilinganning ikkinchisidir. Agar ozod qilingan kishi vafot qilsa, uning meroshori bolmasa valiyi unga meroshor boladi.]

Shar`iy ilmga e`tibor bermaslik ham guruhbozlik zanjirlaridan biridir. Chunki, ilm boshqa, gap boshqa. Zero, guruhbozlar o`z muridlariga oddiy diniy masalalarnigina o`rgatadilar. Masalan: «Namoz o`qi» deydi. Biroq, namozning qanday o`qilishini o`rgatmaydilar. Balki, ularni «harakat



Ислом Нури

ilmi», «harakat olimlari», mufakkir» va «harakatdagi odam» (faol) deb nomlashgan «ilm»gagina yo`llaydilar... Hatto, ummatni o`zining haqiqiy olimlari - shariat olimlaridan ayirdilar. Shariat olimlarini ba`zida voqe`ni tushunmaslik, kaltafahmlik va fikr torligi bilan aybladilar. (Chunki, shariat olimlari guruhbozlarning da`vatlari va harakatlariga qo`shilmadilar. Yoki gunoh ishlarni avvaldanoq ta`qiqladilar). Guruhbozlar buning oqibatida boshlang`ich ilmgagina e`ga bo`lgan kishilarni olimlar martabasiga ko`tarib, ularni «harakat olimlari» yoki «harakatdagi kishilar» yoki «da`vat va da`vat yo`nalishining yo`lboshchilari» deb atadilar. Har bir guruh o`zi uchun harakat dasturini tuzdi va ishlarni shu dastur asosida o`lchovga olmoqda. Shu dastur asosida shar`iy dalillarni ta`vil qilmoqda yoki rad e`tmoqda. Axir bu salaf solih dasturini halok qiluvchi g`urur va tom jaholat e`masmi?!

Guruhbozlikning musulmonlar jamoatiga zarari

Guruhbozlik ofat bo`lib, uning asosida do`st va dushman bo`lish Islom ta`qiqlagan - Alloh va rasululloh sollallohu alayhi va sallamga qarshi chiqishdir.

* Guruhbozlik - yoshlar qalbida guruhbozlik fikri bilan islomiy harakat o`rtasini mustahkam bog`laydi. Ya`ni amal faqat sen mansub bo`lgan guruh bilangina bo`ladi, deb tushuntiriladi.

* **Guruhbozlik** - Islomni bir qolipga solish va shu tarafdangina Islomga boqish, demakdir.

* **Guruhbozlik** - «musulmonlar» deb qo`yilgan nomga tersdir. Chunki, Alloh ta`olo: «U sizlarni «musulmonlar» deb atadi» - dedi.

* **Guruhbozlik** - o`ziga bo`lgan taassub sababli haqiqatni tanishdan



Ислом Нури

pardalanish, demakdir.

* **Guruhbozlik** – islomiy birodarlikni yo`q e`tadi. Shuning uchun ham guruhbozlarning bir-birlari bilan uchrashuvlari maqsadlariga olib bormaydi. Chunki, birlarining dasturlari ikkinchilarinikiga to`g`ri kelmaydi.

* **Guruhbozlik** – birodarlik ostidagi birodarlikni vujudga keltiradi. Ya`ni guruhning dasturi va shiorlari ostida avval umumiy, keyin e`sa xususiy birodarlik bo`ladi.

* **Guruhbozlik** – jamoatlar o`rtasida bir-biriga yomon laqablar qo`yish, demakdir.

* **Guruhbozlik** – shaxslar haqida g`uluv ketish sababidir.

* **Guruhbozlik** – jamoat fikri va taqsimoti bilan yurib, boshqacha fikrlash yo`llari hamda tanqid qilishni to`shish, demakdir.

* **Guruhbozlik** – Islom Ummatining haqiqiy muammolaridan boshqa mavzular bilan shug`ullanish sababidir.

Guruhbozlikning ochiq zararlaridan biri, Alloh yo`liga bo`lgan da`vatning o`z bosqichlarida payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning uslublaridan chetga chiqishidir. Bu e`sa e`tiqodni kuchaytirish, dinni mukammal o`rganish yoki arab tilini yoyishni maqsad qilmaslikdir. Chunki, guruhbozlik da`vatlari fikr va rejaga asoslangan bo`lib, o`zidagi imkoniyatlar miqdoricha yashay olishi mumkin. Payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning uslubidagi da`vat e`sa boqiy bo`lib, mujaddid (islomiy da`vat susaygan yoki yo`q bo`lgan paytda harakat qilgan) olimlarning o`limi bilan to`xtamaydi. Chunki, u Islom va payg`ambarlarning «La ilaha



Ислом Нури

illalloh» ga qilgan da`vatlaridir.

Birlik guruhbozlikda e`mas, sunnatdadir!

Islom musulmonlarni boshqa har qanday nizom va dastur bog`lay olmaydigan kuchli va shu davrning o`zida nozik aloqa bilan bog`ladi. Zero, islomiy birodarlik – Islom dinidagi do`stlik va dushmanlik asosidir. Demak, musulmon tanisin, tanimasin, birisi mashriqda va birisi mag`ribda bo`lsin, musulmonning og`asidir. Quyidagi so`zlarni aytgan Sufyon Savriy rahimahullohni Alloh rahmat qilsin: **«Mashriqda yoki mag`ribda bir kishining ahlussunna (sunnatga amal qilgan) e`kanining xabari yetsa, unga salom yo`lla va ularning haqqiga duo qil! Chunki, «ahlussunna val-jamoa» juda ham oz qoldi».**

Allohu Akbar!...

Shugina «ahlussunna» (sunnatga amal qilgan) musulmonlarning bir-birlariga bo`lgan aloqalarining rabboniy dasturidir. Guruhbozlar va ularning aloqalarining shiorlari yoki do`stlik va dushmanlikni dastur-qoidalari asosiga qurayotgan, natijada e`sa musulmonlar saflaridagi ixtilof, bir-birlarini ayblash va da`vat manfaati yo`lida ba`zi narsalarni muboh sanash bo`lgan parchalovchi va bid`at dastur da`vatchilari Allohdan qo`rqsinlar!

Axir gunoh ishlarni qilish bilan qanday manfaatga e`rishish mumkin!

Sayyid Qutb rahimahulloh o`zining «Soyalari» (zilol) da da`vat manfaatlari haqida tillo suvlari bilan yozishga loyiq bo`lgan ushbu so`zlarni yozdi: **«»Da`vat manfaati» degan so`z da`vatchilar qomusidan olinishi kerak. Chunki, bu so`z xorlik belgisi va Shaytonning**



Ислом Нури

darichasi bo`lib, U shaxslar manfaati tarafidan kelish qiyin bo`lgan bir paytda shu darichadan kirib keladi. Ba`zida da`vat manfaati butga aylanib, da`vatchilar unga da`vatning asosiy yo`nalishini unutkanlarida sig`inadilar. Da`vatchilar da`vatning haqiqiy dasturida matonat bilan turishlari, intilishlari va intilishlarining natijasi nima bo`lsa bo`lsin, undan og`masliklari kerak.

Ba`zida bu harakatlarda da`vat va da`vatchilar uchun xatar bordek tuyulishi mumkin. Aslida e`sa, da`vatchilar e`htiyot bo`lishlari kerak bo`lgan yagona xatar – payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning da`vat uslubidan biron bir sabab bilan, hoh katta va hoh kichik bo`lsin, ajralishdir. Alloh da`vatchilardan ko`ra manfaatlarni yaxshi biladi. Ular manfaatni qanday bo`lsada olib kelish uchun majburlangan e`maslar. Balki, ular bir ishga – da`vatning (haqiqiy) dasturi va to`g`ri yo`ldan og`maslikka buyurilgandirlar».

Najot yo`li

Musulmon do`stim, bilingki, ushbu firqa, jamoat, partiya va guruhlarning barchasi katta kemalar oldidagi kichik qayiqchalarga o`xshaydi. Kichik qayiqchalar dengizda beqaror, katta kemalar e`sa barqarordir. Shuning uchun ham, Imom Molik rahimahulloh: «**Sunnat Nuhning kemasidir. Unga mingan qutuladi, minishdan kechikkan g`arq bo`ladi**» degan e`di.

Zuhriy rahimahulloh: «**Barcha ulamolarimiz: «Sunnatni mahkam ushlar - najotdir» degan e`dilar**»- dedi.

Avzoiy rahimahulloh: «**Islom ahli e`mas, sunnat shli o`ladi. Hatto bir o`lkada ulardan bittasi qoladi**»- dedi.



Ислом Нури

Ho`y Allohning bandasi, bu yo`lda yurgan odamlarning ozligidan qo`rqmang! G`arib bo`lgan kunlaringizda umidingizni uzmang! Chunki, barcha qiynchiliklar ortidan engilliklar keladi... «Ahlussunna val-jamoa» bilan birga bo`ling! Agar yolg`iz bo`lsangiz Abdulloh ibn Mas`ud raziyallohu anhuning: «Jamoat - haqiqatga uyg`un kishilardir, garchi tanho bo`lsangiz ham»- deb aytgan so`zlarini e`slang!

Risolamizning so`nggida shuni aytmogchiman: «**Men islohnigina maqsad qildim. Mening muvaffaqiyatim Alloh bilanginadir. Men ungagina tavakkul qildim va qaytdim**». Alloh ta`olo ushbu risolani e`shituvchi quloq va tushunuvchi qalblarga etishiga muyassar qilsin. Va so`nggi duomiz: «**Barcha olamlar robbisi bo`lgan Allohga hamdlar bo`lsin**»».

* * *